

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Ibragimova Ma‘mura Muxiddinovna

**University of Business and Science “Yashil iqtisodiyot kafedrası”
dotsenti, PhD.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20175208>

Annotatsiya: Ushbu maqolada global iqlim o‘zgarishi sharoitida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishi hisoblangan atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” o‘tishni ta‘minlash uchun xususiy sektorni rag‘batlantirish, innovatsion moliya texnologiyalarini joriy etish hamda qonunchilik bazasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.

Annotatsiya.

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты финансирования перехода к «зеленой» экономике в контексте глобального изменения климата. Выдвигаются научно обоснованные предложения по стимулированию частного сектора, внедрению инновационных финансовых технологий и совершенствованию законодательной базы для защиты окружающей среды и обеспечения “зеленого” роста, что является приоритетом стратегии “Узбекистан – 2030”.

Abstract.

This article examines the theoretical and practical aspects of financing the transition to a "green" economy in the context of global climate change. Scientifically based proposals are put forward to stimulate the private sector, introduce innovative financial technologies, and improve the legislative framework to protect the environment and ensure “green” growth, which is a priority of the “Uzbekistan – 2030” strategy.

Kalit so‘zlar: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, yashil iqtisodiyot, yashil moliya, yashil obligatsiyalar, ESG tamoyillari, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror rivojlanish, investitsiya jozibadorligi, energiya samaradorligi.

Ключевые слова:

Стратегия “Узбекистан–2030”, зеленая экономика, зеленое финансирование, зеленые облигации, принципы ESG, возобновляемая энергия, устойчивое развитие, инвестиционная привлекательность, энергоэффективность.

Keywords: “Uzbekistan – 2030” strategy, green economy, green finance, decarbonization, green bonds, ESG principles, renewable energy sources, sustainable development, investment attractiveness, energy efficiency.

Kirish

Bugun jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishlarini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri sifatida tan olmoqda. Mutaxassislar fikricha, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish hamda unga moslashish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri iqtisodiyotni yashillashtirishdir. Bu borada mamlakatimizda ham amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Xususan, sohaga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. “Gidrometeorologiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasi, 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston

Respublikasining “yashil” “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasi tasdiqlangan.

Bugungi kunda atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishda ekologik toza transport vositalari sonini oshirish, yoqilg'i sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu borada ham mamlakatimizda qator ishlar qilinmoqda. Masalan, elektromobillar soni ortishi yoki Toshkent shahrida elektrobuslarning harakati yo'lga qo'yilgani bunga yaqqol misol bo'ladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish quvvatini oshirish borasida ham sezilarli natijalarga erishilmoqda. Jumladan, 2021 yilda Karmana tumanida ishga tushirilgan (loyiha qiymati 110 million AQSh dollari, quvvati 100 megavatt) quyosh fotoelektr stantsiyasi energetika tizimidagi birinchi ulkan qadam bo'ldi. Yiliga 252 million kilovatt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi mazkur fotoelektr stantsiya 30 mingdan ziyod xonadonni quvvat bilan ta'minlash imkonini berishi bilan birga, 80 million kub metr tabiiy gaz tejalishiga zamin yaratadi. Atmosferaga 160 ming tonna issiqxona gazi chiqishining oldi olinadi. Joriy yilda Nurobod tumanida ham xuddi shunday stantsiya ishga tushirildi.

ESG - ekologik (Environmental), ijtimoiy (Social) va boshqaruv (Governance) mezonlaridan tashkil topgan baholash tizimi bo'lib, investorlar uchun risklarni kamaytirish va uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv barqaror investitsiya strategiyalarining markaziy elementiga aylangan.

Yashil obligatsiyalar - bu atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiluvchi maxsus moliyaviy vositalar bo'lib, ular yordamida qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini boshqarish kabi loyihalar moliyalashtiriladi. Bunday obligatsiyalarga talab tobora ortib bormoqda, chunki ular ijtimoiy javobgar investorlar orasida ommalashgan. O'zbekiston barqaror rivojlanish kun tartibiga faol qo'shilmoqda. Ayni paytda quyidagi imkoniyatlar mavjud. Ya'ni quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish, davlat va xususiy sektor hamkorligi kabilar kiradi.

Biroq, muammo shundaki, yashil moliyaviy vositalar bozorining zaifligi, investorlarda yetarlicha bilim va ma'lumotning yo'qligi, shuningdek, normativ-huquqiy bazaning takomilga muhtojligi jarayonni sekinlashtirmoqda. ESG mezonlarini milliy investitsiya siyosatiga integratsiya qilish, yashil moliyaviy institutlarni yaratish, moliya bozorlarida ekologik standartlarni joriy etish, xalqaro tajribani o'rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish lozim. Yashil moliya tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari yashil moliya nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, biologik xilma-xillikni saqlash va ekologik barqaror infratuzilmani yaratishga xizmat qiladi.

Hozirda investorlar ESGga asoslangan investitsiyalarni afzal ko'rmoqda. Yashil obligatsiyalar va investitsiya fondlari 2023-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'yicha chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi \$1.1 trilliondan oshdi. Bu moliyaviy vosita energiya samaradorligi, ekologik transport tizimlari, suv resurslari va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha loyihalarni moliyalashtirishda keng qo'llanilmoqda. Yashil investitsiya fondlari (masalan, Climate Bond Initiative) investorlarga ekologik loyihalarda ishtirok etish imkonini beradi va global iqlim maqsadlariga erishishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonda yashil moliya imkoniyatlari va to'siqlari O'zbekiston 2021-yilda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini qabul qildi va 2030-yilgacha bo'lgan milliy rivojlanish strategiyasiga yashil energetika, suv resurslarini tejash, chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarni kiritdi.

Adabiyotlar tahlili

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uni moliyalashtirish masalalari so‘nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish bo‘yicha A.T. Shermuxamedov va B.M. Kholboev (2020) o‘z ishlarida ishlab chiqarishni ekologik modernizatsiya qilish zaruriyatini ta’kidlaydilar. Sh.A. Yuldoshev (2025) o‘z tadqiqotlarida banklarning yashil kreditlash salohiyatini oshirish va aholining moliyaviy savodxonligini yashil loyihalar yo‘nalishida rivojlantirish masalalarini ko‘targan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini moliyalashtirishning rivojlanishini nazariy-metodologik asoslarini aniqlash maqsadida, umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Bundan tashqari, tadqiqotda tahlil va sintez usullari qo‘llanildi. Induktiv va deduktiv mantiq usullari orqali global miqyosdagi “yashil” trendlar va xalqaro tajribalar (deduksiya) o‘rganilib, ularning O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti sharoitiga mos keluvchi xususiy jihatlari (induksiya) umumlashtirildi. Bu esa “yashil moliya” tushunchasini milliy kontekstda yanada aniqroq tavsiflash imkonini berdi

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda moliyalashtirish yo‘llari va mexanizmlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 2023-2024 yillarda erishilgan asosiy natijalarni quyidagicha guruhlash mumkin: Yashil suveren obligatsiyalarning muvaffaqiyatli joylashtirilishida, O‘zbekiston MDH davlatlari ichida birinchilardan bo‘lib London fond birjasida milliy valyutada 4,25 trillion so‘m miqdoridagi “yashil” suveren obligatsiyalarni joylashtirdi. Ushbu mablag‘lar suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish (taxminan 1 mln gektar), temir yo‘llarni elektrlashtirish va yashil bog‘larni barpo etish kabi loyihalarga yo‘naltirildi¹.

Energetika sohasidagi transformatsiya va investitsiyalarida esa, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) ulushini oshirish bo‘yicha keskin o‘shish kuzatildi.

1-jadval

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishda moliyalashtirish yo‘nalishlari (2021–2024)²

№	Ko‘rsatkich nomi	2021 y	2022 y	2023 y
1.	QTEM umumiy quvvati (MVt)	100	350	1 200
2.	Yashil loyihalarga XMI investitsiyalari (mlrd USD)	0,42	0,85	1,50+
3.	Yashil suveren obligatsiyalar (trln so‘m)	—	—	4,25
4.	Atmosferaga tashlanmalar kamayishi (%)	—	-11%	-11%+

¹ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoboti, 2023 y.

² OECDning "Financing Uzbekistan's Green Transition" hisoboti, 2023 y.

5.	Korporativ yashil obligatsiyalar (mlrd so‘m)	—	—	50
6.	2030-yilga QTEM maqsadi (GVt)	15 GVt (maqsad)	15 GVt (maqsad)	15 GVt (maqsad)

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini moliyalashtirish yo‘nalishlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat iqtisodiyoti strategik transformatsiya bosqichida turibdi. Tadqiqot natijasida shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagilardan iborat. Hozirgi kunda moliyalashtirishning asosiy yuklamasi davlat va xalqaro moliya institutlari zimmasiga tushmoqda, bu esa kelgusida xususiy sektor ishtirokini keskin oshirish zaruratini tug‘diradi. Yashil moliya instrumentlarining transformatsiyasi borasida, O‘zbekistonning suveren yashil obligatsiyalar bozori (4,25 trln so‘m) muvaffaqiyatli shakllandi. Biroq, natijalar shuni ko‘rsatadiki, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish uchun nafaqat davlat obligatsiyalari, balki korporativ yashil obligatsiyalar va “ko‘k” obligatsiyalarni (suv resurslari uchun) ham muomalaga kiritish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- ekologik loyihalarni saralash va ularni moliyalashtirish uchun yagona milliy standart - “Yashil taksonomiya”ni barcha moliyaviy institutlar uchun majburiy etib belgilash. Bu investitsiyalarning haqiqiy “yashil” loyihalarga yo‘naltirilishini ta‘minlaydi va “greenwashing” (sohta yashil hisobotlar) xavfini kamaytiradi.

- yashil investitsiyalar uchun soliq va bojxona imtiyozlari tizimini kengaytirishda, energiyani tejavchi va chiqindisiz texnologiyalarni import qiluvchi tadbirkorlar uchun uzoq muddatli (5-10 yil) soliq ta‘tillari va imtiyozli “yashil” kredit liniyalarini yaratish;

- barqaror obligatsiyalar bozorini rag‘batlantirish. Mahalliy kompaniyalar tomonidan yashil obligatsiyalar chiqarilganda, ularning emissiya xarajatlarini davlat tomonidan qoplash yoki ular bo‘yicha olinadigan daromadlarni daromad solig‘idan ozod qilish mexanizmini joriy etish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. PF-158-son. 11.09.2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-4422-son. 02.12.2022.
3. Vaxabov A.V., Xajibakiyeva Sh.A.Yashil iqtisodiyot.Darslik. – Toshkent: “Universitet”, 2021. – 260 b.
4. Raimjanova M.A.Prospects for the development of green bonds in Uzbekistan.//Journal of Advanced Research in Economics and Administrative Sciences, Vol. 4, Issue 2, 2023.